

PAPER

AJDODLAR AN'ANALARI VA ZAMONAVIYLIK: FARG'ONA VODIYSI MUSIQASIDAGI AYOLLARNING ROLI

Mamajonova Dildoraxon Abduraxmonovna¹,

¹Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

* mamajonovadildoraxon5@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida joylashgan xonandalik maktablarining o‘ziga xos ijrochilik an‘analari, pedagogik asoslari va gender tengligi masalalari chuqur tahlil qilinadi. O‘zbekiston xalq artisti Tamaraxonimning ijodi va tarbiyasi orqali, ayol xonandalar va musiqalarning rivoji, milliy musiqiy merosning zamонавија talqinlari hamda yosh avlodni ijodiy tarbiyalashdagi o‘rni ko‘rsatiladi. Maqola, shuningdek, gender tengligini ta‘minlash va san‘at sohasidagi ayollarning rolining oshirilishi zarurligini ta‘kidlaydi, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yoshlarning kuch-g‘ayratini rag‘batlantirishga qaratilgan takliflar bilan yakunlanadi.

Key words: Farg‘ona vodiysi, xonandalik maktablari, gender tengligi, musiqiy meros, yosh avlod, pedagogik an‘analari, Uchinchi Renessans, ijrochilik mahorati, milliy madaniyat.

Kirish

O‘zbek musiqa san‘atining rivojlanish jarayoni asrlar davomida shakllangan an‘analari, ijrochilik maktablari va ularning pedagogik asoslari bilan chambarchas bog‘liqidir. Bu jarayonda Farg‘ona vodiysi xonandaligi maktablarining o‘rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona vodiysi hududi boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lib, uning xonandalik maktablari o‘ziga xos ijrochilik an‘analari va uslublari bilan ajralib turadi. Ushbu maktablar nafaqat o‘zbek milliy musiqasining rivojlanishiga, balki yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etedi.

Adabiyot Tahlili

Ushbu maqola, O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida joylashgan xonandalik maktablarining ijrochilik an‘analari va gender tengligi masalalarini keng qamrovda tahlil qiladi. Asosiy e’tibor O‘zbekiston xalq artisti Tamaraxonimning ijodi, tarbiyasi va uning ayol xonandalar uchun qanday namunalar yaratganiga qaratilgan.

Usullar va natijalar

Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablarining pedagogik tahlili uchun tarixiy, madaniy va ijodiy muhitni o‘rganish usuli qo‘llanildi. Bu jarayonda xonandalik maktablarida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar, ustoz-shogird an‘analari, maqom san‘atining o‘rni va ayol ijrochilarning roli tahlil qilindi. Shuningdek, ayrim muvaffaqiyatlari ayol xonandalar, masalan, Tamaraxonimning ijodi va tarixi asosida tadqiqotlar amalga oshirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona vodiysi xonandalik maktablari o‘zlarining xilma-xil ijro uslublari bilan noyobdir. Ayol xonandalar kengaytirilishi orqali yosh avlodni musiqiy va ma‘naviy tarbiyalashda muhim rol o‘ynamoqda. Tamaraxonim kabi ijodkorlar esa, o‘z tarixiy implementatsiyalar orqali xalqaro miqyosda e’tirof etilgan holda, o‘zbek musiqa san‘atining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘sghan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Xonandalik maktablarida ustoz-shogird an‘anasi asosida ijrochilik mahorati rivojlantiriladi. Ushbu an‘ana shogirdlarda nafaqat musiqiy qobiliyatni shakllantiradi, balki ularga milliy qadriyatlarni, madaniy merosni o‘rgatadi. Shu nuqtan

nazardan, Farg'ona vodiysi xonandaligi maktablarida faoliyat olib boruvchi ustoz san'atkorlarning pedagogik mahorati va uslubiy yondashuvlari alohida ahamiyatga ega. Xonandalik maktablarida faoliyatida maqom san'ati alohida o'rinn tutadi. Maqom ijrochiligi orqali o'zbek milliy musiqasining murakkab shakllari, ohanglari va ritmik xususiyatlari o'rgatiladi. Maqomlarni o'rgatish jarayonida didaktik tamoyillar, xususan, o'rganuvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olish, o'quv jarayonining bosqichma-bosqichlik tamoyilini qo'llash, shuningdek, nazariya va amaliyotning uzviy bog'lilagini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning musiqi tafakkurini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida tanlovlardan, festivallar va konsert dasturlari tashkil qilinadi. Bunday faoliyat ularning sahna madaniyati va ijrochilik tajribasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Farg'ona vodiysi xonandaligi maktablarining yana bir muhim jihat shundaki, ular milliy musiqa merosini zamonaviylik ruhida talqin qilish orqali uning dolzarbligini saqlab qolishadi. Bu jarayonda milliy musiqiy an'analar zamonaviy musiqiy yo'naliishlar bilan uyg'unlashtiriladi. Maqom va folklor elementlarini zamonaviy estrada musiqasiga muvaffaqiyatlari integratsiya qilish orqali nafaqat milliy musiqiy merosni asrabavaylash, balki yosh avlodni ijodiy va ma'naviy tarbiyalashning uzviyligi ta'minlanmoqda. Shu jarayonda Al-Farobi, Navoiy, Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning musiqaga oid qarashlari va ma'naviy merosi yoshlarning nafaqat musiqiy bilimlarini, balki ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.

Farg'ona vodiysi xonandalik maktablari faoliyatining pedagogik tahlili shuni ko'ssatadi, ular milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirishning, shuningdek, yosh avlodni ijodiy tarbiyalashning muhim poydevorini tashkil etadi. Gender tenglik, ayniqsa, san'at sohasida, jumladan, musiqiy ijodda dolzarb masala bo'lib, mushtarak jamiyat qurishda muhim omil hisoblanadi. Ayol xonandalar va musiqachilarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular uchun teng sharoitlar yaratish orqali milliy musiqiy merosni yanada boyitish mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoev bu borada shunday ta'kidlaydi: "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yanamiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'l'im, maktab va oliy ta'limi hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inxilar deb hisoblaymiz". Ushbu so'zlar milliy san'at rivojida gender tenglik masalasining o'ta muhim ekanini anglash uchun asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yanamiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik" - deya ta'kidlar ekan, O'zbekistonning uchinchi Renessansi amaliyotida yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishda oiladagi gender munosabatlar mushtarakligi va uning rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk san'atkorlarimiz ijodiy hayoti hamda ular ijro etgan msiqiy asarlar mazmunidagi gender bag'rikenglik namunalardan ibrat olish dolzarblik kasb etishini anglash muhimdir.

Milliy musiqa san'atida ayollar rolini oshirilishi va ularning jismoniy, ma'naviy hamda badiiy jihatdan rivojlanishi bugungi kunda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysi xonandalik maktablari qadimdan o'zining boy ar'analari, o'ziga xos ijro uslublari va pedagogik tajribalari bilan ajralib turgan. O'zbek musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligi ijodiyotining takomillashuvi murakkab va o'ziga xos tarixiy jarayon bo'lib,

bu yo'lida ulkan san'atkorlar, jumladan, O'zbekiston xalq artisri Tamaraxonimning beqiyos hissasi alohida o'rinn tutadi. Tamaraxonim 1906-yil 29-mart kuni Marg'ilonda, o'zbek mahallasida yashovchi arman millatiga mansub Anna va Artyom Petrosyanlar oиласида dunyoga keldi. Yoshligidan san'atga bo'lgan qiziqishi, uning sho'x va shodon tabiatini hamda mahalladagi bolalar bilan inoq aloqalarini uni san'at sohasiga olib keldi. Artistlar sayoh truppasining chiqishlarini Tamaraxonimni ilhomlantirib, san'atni o'z hayoti tarziga aylantirishga undadi. Uning iste'dodi hamda sahnadagi birinchi qadamlarini qo'yishida, ayniqsa, onasining "Qizim hali Parijda raqsga tushadi!" degan orzusi muhim rol o'ynadi.

Tamaraxonimning san'ati nafaqat o'zbek raqs va musiqasining rivojiga, balki gender tenglikni tarannum etishiga ham katta hissa qo'shgan. U 12 yoshida sahnada tengdosh raqqosalari bilan bir safda chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayon uni 1922-yilda Toshkent balet truppasiga olib keldi. Truppa bilan O'rta Osiyo bo'ylab gastrol safarlarida Sharq ayollari ozodligi va teng huquqlilikni ifodalovchi raqlarini namoyish etgan Tamaraxonimning ijodi sezilarli ravishda yuksaldi. 1923-yilda Moskvada A.V.Lunacharskiy nomidagi Teatr texnikumida tahsil olib, "Sharq qaldirg'ochi" nomini olish orqali xalqaro miqyosda tanildi.

Tamaraxonimning ijodiy yo'lidi muhim burilishlardan biri, Muhitdin Qori Yoqubov bilan tanishuvni edi. Ular san'atda birlashib, hayotda ham o'zaro hamkorlikni boshladilar. 1925-yilda ular Parijda o'tkazilgan Xalqaro dekorativ san'at ko'rgazmasida O'zbekiston nomididan muvaffaqiyatlari ishtirot etib, xalqaro sahnada o'zbek san'atini yuqori baholashga erishdilar. Ularning Parijdagagi chiqishlarini nafaqat ular uchun, balki butun o'zbek san'ati uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Germaniyaga qaytayotganda Aysedora Dunkan bilan uchrashuv, uning raqs san'atiga nisbatan yuqori baholari Tamaraxonimning xalqaro miqyosdagagi obro'sini yanada mustahkamladi.

Tamaraxonimning xalqaro tanilishi uning ijodiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning "Tamara Xonim" nomi butun dunyo bo'ylab tanilib, o'zbek musiqa san'ati va raqs san'ati global miqyosda rivojlanishiga hissa qo'shdi. Tamaraxonim nafaqat san'at olamida, balki pedagogika sohasida ham o'z merosini qoldirdi. Uning ijodi va san'atni pedagogik jarayonda qo'llash, yosh xonandalarga milliy musiqaning chuqr mazmunini, sahna ifodasini va vokal mahoratini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Tamaraxonim ijodiy faoliyatida xalq qo'shiqlari va raqs san'atini birlashtirish orqali sahna san'atiga yangi yondashuv olib kirdi. U ijro etgan "Kelinchak" va "Dilhiroj" kabi kuylar nafaqat o'zining emotsiyonalligi, balki pedagogik jihatdan tahlilga mosligi bilan ham ajralib turadi. Xususan, "Dilhiroj" kuyida vokal ijrochilik bilan birga, milliy raqs harakatlarini uyg'unlashtirish usuli yosh xonandalar uchun sahna ifodasi va ijro mahoratini shakllantirishda o'rnat bo'lib xizmat qiladi. Uning ijrosidagi har bir kuyning tahlili kuyni o'quvchilarga nafaqat ovoz texnikasi, balki milliy ruhni tushunish jihatidan ham ularish imkoniyatini beradi.

1938-yilda qo'shiq va raqs janrlarini birlashtirgan ilk ijodkorlardan biri sifatida, Tamaraxonim san'atga yangi yo'naliш olib kirdi. Uning "Munojot" va "Chimildiq" kabi kuylaridagi pedagogik jihatlar yosh avlodning musiqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishishlariga yordam beradi. "Munojot" kuyidagi ichki ruhiy olam va ma'naviy poklik, "Chimildiq" kuyidagi oila qadriyatları va erkak-ayol munosabatlaridagi uyg'unlikni o'rganish o'quvchilarga ma'naviy, tarbiyaviy va musiqa texnikasi jihatdan katta ta'sir ko'rsatadi.

Tamaraxonimning xalqaro miqyosdagagi faoliyati Farg'ona vodiysi xonandalik maktablarining pedagogik qiymatini oshirdi. 1937-yilda Parijdagagi xalqaro ko'rgazmadagi muvaffaqiyati yosh xonandalar uchun motivatsiya manbai bo'lib, milliy o'zlizki ifoda etish va xalqaro miqyosda tanilish imkoniyatlarini anglatadi.

Tamaraxonimning ijodiy maktabi hozirgi kunda yoshlar uchun pedagogik, tarbiyaviy va ijodiy jihatdan munosib o'rnak bo'lib, uning yutuqlari sahma madaniyatini chuqur anglashga va milliy musiqiy merosni saqlashga hissa qo'shamdi. Uning ijodi va pedagogik faoliyati o'zbek musiqa san'ati va ayol xonandalik san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish o'rinniki, jamiyatda gender tengligi va ayol san'atkorlarning roli ustida chuqur tahlil olib boradi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston madaniyatining rivojlanishi va yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Muhiddin qori Yoqubov va Tamaraxonimlar oilaviy gender uyg'unligining maqsadlari barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, Vatan ravnaqi yo'lidagi barcha iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyatlar eshigini oshib berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchilik salohiyatini qo'llab-quvvatlash uchun sog'lom muhitni ta'minlashdan iboratdir.

References

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.; O'zbekiston, 2021.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 dekabr kuni O'zbekiston yoshlari forumidagi nutqi.
3. Tursunov M. (2019). "Gender tengligi va san'at". San'at va hayot, 22-31bb.
4. Karimova S. (2020). "Yosh avlod tarbiyasi va ijod". Yoshlar va jamiyat, 4(1), 97-105 bb.
5. Abdullaeva G. (2018). "Musiqiy merosimiz va uning ahamiyati". O'zbek musiqasi, 5, 10-15 bb.